



MUHAMMAD SOLIHNING “SHAYBONIYNOMA” ASARI – TARIXIY MANBA SIFATIDA

Durdona Mashrabaliyeva

Namdu, Tarix yo`nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5702864>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05- Noyabr 2021

Ma'qullandi: 10- Noyabr 2021

Chop etildi: 15- Noyabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Temuriylar, Tarixnavislik,
Muhammad Solih,
Shayboniynoma, Shoir,
Buxoro, Samarqand,
Bobur Mirzo, Muhammad
Shayboniyxon, Vena

ANNOTATSIYA

Asarda Shayboniyxon Samarqandga kirib kelganida shahar aholisining hayoti juda og'ir ahvoldaligini qayd etib, bu o'g'ir hayot temuriylarning xatosi ekanligini ko'rsatadi va quydagicha yozadi, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asari tarix uchun kerakli manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

XVI asrning boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy voqelik, temuriylar sulolasining tarix sahnasidan chiqib ketishi va shayboniylar avlodi hukmronligiga asos solinishi tarixnavislik hamda badiiy ijod o'z ifodasini topa boshlaydi. Shayboniylar davri madaniyati temuriylar davridek rivojlanmagan bo'lsada, madaniyatning davomchisiga aylandi.

Muhammad Shayboniyxon o'z xizmatiga ko'plab olim-shoirlarni, saroyda xizmat ko'rsatgan ijodkorlarni yuqori e'htirom bilan qabul qilgan. Temuriy xonlaridan andoza olib, o'z davri tarixini yozishni tarixchi olimlarga buyurgan. Natijada, Mullo Shodiyning 76 bobdan iborat “Fathnomai xoniy” (Xoning g'alabasi), Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma” va “Futuhoti

xoniy” (Xoning g'alabasi), Ro'zabaxonning “Mehmonnomai Buxora”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” kabi tarixiy va jangnoma asarlar yaratildi.

Bu davrda temuriylar xizmatida bo'lgan bir qator olim va shoirlar shayboniylar xizmatiga o'tgan bo'lib, ulardan biri Muhammad Solih edi. Muhammad Solih 1455-yilda Xorazmda dunyoga keladi. Uning otasi Amir Nur Saidbek temuriylar hukmdorlaridan Mirzo Ulug'bek va Jo'gi Mirzo saroyida e'tiborli kishilardan biri bo'lib, keyinchalik Abu Said Mirzo zamonida Xorazm hokimi bo'lgan. Uning onasi haqida ma'lumot yo'q, faqat u Buxorolik ekanligi aytiladi. 1469-yilda Xorazmni Husayn Bayqaro egallaganidan so'ng, Abu Said Mirzoning ko'plab amir va beklarini qatl



ettiradi, ularning orasida Muhammad Solihning otasi ham bor edi. Yosh Muhammad Solih bunday kulfatlarga qaramay yoshlik chog'lari ilm olishdan to'xtamaydi va zamonasining ulug' donishmandi va shoiri Abdurahmon Jomiydan tahsil oladi.

Muhammad Solihning otasi temuriylar tomonidan qatl etilgani va mol-mulki talon-taroj qilinishidan nafrati bois Shayboniyxonning xizmatiga 1499-yilda o'tadi. Muhammad Shayboniyxon shoirga hurmat ko'rsatib, unga saroyida "Amir ul-umaro" (Ulamolar amiri), "Malik ush-shuaro" (Shoirilar sultoni) unvonlarini beradi.

Muhammad Solih Muhammad Shayboniyxonning juda ko'plab yurishlarida u bilan birga qatnashadi. Shoirning 1506-yildan keyingi hayoti haqida ma'lumotlar juda oz saqlanib qolgan. Manbalarda e'tirof etilishicha, Muhammad Solih Ashxobod yaqinidagi Niso shahriga dorug'a etib tayinlangan. Bu yerda u Shayboniyxonning vafotiga qadar, 1510 – 1511-yillargacha faoliyat ko'rsatganligi taxmin qilinadi. Keyinchalik, Buxoroga qaytib, umrining oxirigacha shu yerda yashaydi. Shoirning vafot etgan sanasi Lutf Alibek Ozarning "Otashkada" asarida hijriy 941-yilda (1535-yil) ekanligini qayd qilinadi¹.

"Shayboniyнома" – Muhammad Shayboniyxonga bag'ishlangan asar bo'lib, uning temuriylarga qarshi yurishlari, o'z davlatini bunyod etishi haqida ma'lumot beradi. Asar 76 bob, 8902 misradan iborat, asosiy voqealari 17-bobdan boshlangan. Bu

boblarda 1499 – 1500-yillarda Shayboniyxonning Turkistondan Samarqandga yurishi va chekinishi, Buxoro viloyati hokimi Boqi Tarxon va uning qo'shinini Dabusiya qo'rg'onida (hozirgi Ziyovuddin yaqinida) qamal qilib, Buxoroni bosib olish voqealaridan boshlab, 1506-yilda Xorazmni bosib olishi va g'alaba bilan Buxoroga qaytishigacha bo'lgan voqeylik tarixiylik tamoyili asosida badiiy ifoda etilgan. Asarning yozilgan sanasi ko'rsatilgan emas. Shayboniyxon Hirotni egallashi va o'z nomiga xutba o'qitganligi voqeasi "Shayboniyнома"da ifoda etilmaganligiga ko'ra, uni 1506 – 1507-yillar yozilgan deyish mumkin².

"Shayboniyнома" asari zamonasi va undan keyingi davrlardagi olimlar tomonidan yuqori darajada baholanmagan, chunki asar she'riy doston shaklida yozilgan va Shayboniyxonni haddan tashqari ilohiylashtirilgan. Bobur Mirzoning aytishicha, asarni o'qigan kishi Muhammad Solihning she'rlaridan betoqat bo'lur deydi. Shunday bo'lsada asar tarixiy qimmatga ega asar hisoblanadi. Unda Shayboniyxonning temuriylar davlatini tugatishi va o'z davlatini tashkil etishi haqida tarixiy ma'lumotlar talaygina. Asarning qiymatini pasaytiruvchi narsa shundan iboratki, Muhammad Solih temuriy hukmdorlar haqida fikr yuritganda, ularni taxqirlash, mazah qilishga intiladi. Bu bilan shoir dilidagi alamini yumshatishga harakat qiladi va Shayboniyxonni ko'klarga ko'tarib, temuriylarni qattiq tanqid qilishi tarixiy haqiqatga nisbatan beryoqlamalikni ko'rishimiz mumkin. Lekin asar tarixiy manba sifatida tarixiy va adabiy qiymatga

¹ O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti", 2016. – B.497.

² O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti", 2016. – B.498.



ega asar hisoblanadi. Asarda muallif temuriylarning hukmronligining so'nggi yillari boshboshdoqlik avj olishi va xalqning jabr-zulim chekishi quydagicha yozadi:

Bul jamoatki, ko'rarsen holo,
Tana-tirno bilan boshlab g'avg'o.
Ichadurlar kecha-kunduz boda,
Din-u iymon soridin ozoda.
Bir-biri bila muxolif barcha,
Bir-biridin taqi xoyif barcha³.

Bunda aytilishicha, temuriy hukmdorlar ko'ngilxushlik bilan ovvora, xalq taqdiri haqida ular uchun qiziq emasligini yozadi. Shuningdek, Bobur Mirzoning davlatni birlashtirishga bo'lgan harakatlari behuda ketganligini ham asarda aytib o'tadi. Shayboniyxonning Buxoro va Samarqandni ustiga yurish qilgani va egallaganini bayramona tarzida keltirgan, jumladan Buxoroni bosib olishini quydagicha yozadi:

Bir tuman xalq qirildi bori,
Bo'ldi zohir sifati qahhori.
Kim yog'iqsa shahi Shayboniyg'a,
Ushbu kun kelgusidur jonig'a⁴.

Bundan aytiladiki, Shayboniyxon Buxoroni bosib olish uchun ko'plab insonlarni qatl qilganligi haqida yozadi. Kim unga itoat qilib kelsa joni omon qolishini aytadi. Asarda Shayboniyxon Samarqandni yana qayta qamal qilib, Boburdan tortib olishi va davlatini tuzishga kirishganini

aytib o'tib Samarqand qamali borasida quydagicha to'xtaladi:

Bo'lur o'g'lonlaringiz barcha asir,
Ag'niyo dog'i bo'lur barcha faqir.
Qo'lungizdin chiqor ayvon-saroy,
Foqay-u faqr qilur sizni gadoy.
Bir labi nong'a bo'lursiz muhtoj,
Barcha ul xong'a bo'lursiz muhtoj⁵.

Muhammad Shayboniyxon 1501-yilda Samarqandni qayta egallab, uni davlatining poytaxtiga aylantiradi, endi u qo'shni hududlarni ham istilo etishga kirishadi va davlatini hududini kengaytiradi. Asarda Shayboniyxonning axloqsizligi haqida ham ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Shoir buni balandparvoz so'zlar bilan go'yoki, Shayboniyxonni olqishlab yozadi. Jumladan, Buxoroni zab etgach, uning hokimi Boqi Tarxonning 12 yoshli nabirasini o'z nikohiga oladi. Shoir asarda buni quyidagicha yozadi:

Ul nabira o'n ikki yoshida,
Lek yuz fitna oning boshida.
Aqd etib oni qo'lig'a oldi,
Naqdi ishqini ko'ngulga soldi.
Ul nabiraning atosini – Barlos,
Bo'ldi Barlosg'a xon qaridosh⁶.

Shuningdek, Muhammad Solih o'z asarida hukmdorning bu kabi nomunosib qiliqlarini ham xursand bir kayfiyatda katta bir ehtiros bilan vasf etadi. Asardagi bu kabi

³Муҳаммад Солиҳ, Шайбонийнома. – Т.: Ғафур Ғулом, 1989. – Б. 34.

⁴ Муҳаммад Солиҳ, Шайбонийнома. – Т.: Ғафур Ғулом, 1989. – Б. 77-78.

⁵ Муҳаммад Солиҳ, Шайбонийнома. – Т.: Ғафур Ғулом, 1989. – Б. 78.

⁶ Муҳаммад Солиҳ, Шайбонийнома. – Т.: Ғафур Ғулом, 1989. – Б. 44-45.



ma'lumotlar temuriylarning ayollari shayboniylar davrida juda qattiq hurmatsizlantirilganini ko'rsatadi.

Asarda Shayboniyxon Samarqandga kirib kelganida shahar aholisining hayoti juda og'ir ahvoldaligini qayd etib, bu o'g'ir hayot temuriylarning xatosi ekanligini ko'rsatadi va quyidagicha yozadi:

Chun Samarqand bu nav'o'ldi xarob,

Bo'ldi ko'p qath bo'lurg'a asbob.

Kuz bu nav' erdi ulusning holi,

Yozg'a shahar ulusdan xoli.

Qish qotig' kedi-yu ko'p yog'di qor,

O'ldi och-u yalong'och el bisyor,

Ko'chalar bo'ldi o'lukdin mamlu⁷.

Ba'zi nuqsonlarga qaramay Muhammad Solihning "Shayboniyнома" asari tarix uchun kerakli manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Asar Muhammad

Shayboniyxonning 1499 – 1506-yillar orasidagi harbiy yurishlarini haqqoniy aks etiruvchi jangnoma tilidagi yirik asardir. Unda qonli to'qnashuvlar, xalq boshiga tushgan og'ir musibatlar ma'lum darajada o'zining realigini ko'rsatadi.

"Shayboniyнома" asarining qo'lyozma nusxalari juda oz bo'lib, uning 1510-yilda shoir hayotligi davrida ko'chirilgan nusxasi bizgacha yetib kelgan. Bu noyob nusxa Avstriya poytaxti Vena kutubxonasida saqlanadi. Asar 1885-yil taniqli sharqshunos olim Herman Vamberining diqqatini jalb etib, nemischaga tarjima qilinadi va XIX asr oxirlarida ilm ahllariga taqdim etiladi. Asarning o'zbekcha tarjimasini ilk bor 1961-yilda Nasrullo Davron chop ettiradi⁸.

Ba'zi nuqsonlarga qaramay Muhammad Solihning ushbu asar bugungi kunda ilm ahli uchun tarixiy yodgorlik sifatida ilmiy qiymatga ega tarixiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti", 2016. – B.497.
2. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti", 2016. – B.498.
3. Муҳаммад Солиҳ, Шайбонийнома. – Т.: Фафур Фулом, 1989. – Б. 34.
4. Муҳаммад Солиҳ, Шайбонийнома. – Т.: Фафур Фулом, 1989. – Б. 77-78.
5. Муҳаммад Солиҳ, Шайбонийнома. – Т.: Фафур Фулом, 1989. – Б. 78.
6. Муҳаммад Солиҳ, Шайбонийнома. – Т.: Фафур Фулом, 1989. – Б. 44-45.
7. Муҳаммад Солиҳ, Шайбонийнома. – Т.: Фафур Фулом, 1989. – Б. 121.
8. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti", 2016. – B.493.

⁷ Муҳаммад Солиҳ, Шайбонийнома. – Т.: Фафур Фулом, 1989. – Б. 121.

⁸ O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti", 2016. – B.493.